

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

MEDIAKOMMUNIKATSIYA VA MILLIY QADRIYATLAR: O'ZBEKISTON EKOLOGIK IMIJNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Djurayeva Dilnoza Fazliddin qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, mustaqil izlanuvchi.
e-mail: dfazliddinovna@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-0010-6796>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada O'zbekiston ekologik imijining shakllanish tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, mamlakatda ekologik siyosatning takomillashuvi, ekologik muammolarning ommaviy axborot vositalarida yoritilishi hamda ekologik kommunikatsiyaning mamlakat xalqaro imijiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, milliy va xalqaro OAVda O'zbekistonning ekologik tashabbuslari, xususan Orolbo'yi hududini tiklash, "Yashil makon" umummilliy loyihasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash sohasidagi ishlarning axborot makonida aks etishi ilmiy nuqtai nazardan baholangan. Maqolada xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar va milliy qadriyatlarimiz tizimidagi, xususan ezgu o'g'itlar va xalqaro muloqot madaniyatiga oid hadislar merosi asosida ekologik imijni shakllantirishning ma'naviy-axloqiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda ekologik madaniyatni yuksaltirish, ekologik kommunikatsiyani rivojlantirish va barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishda milliy qadriyatlar hamda ma'naviy merosning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Ekologik imij, ekologik kommunikatsiya, OAV, ekologik jurnalistika, O'zbekiston, Orol dengizi, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, ekologik madaniyat, hadislar merosi, atrof-muhit muhofazasi, ekologik mas'uliyat, milliy qadriyatlar.

МЕДИАКОММУНИКАЦИИ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ИМИДЖА УЗБЕКИСТАНА

Джураева Дилноза Фазлиддин кизи

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, независимый исследователь.

Аннотация.

В данной статье анализируются история формирования экологического имиджа Узбекистана, этапы его развития, совершенствование экологической политики в стране, освещение экологических проблем в средствах массовой информации и влияние экологической коммуникации на международный имидж страны. Также с научной точки зрения оценивается отражение в информационном пространстве экологических инициатив Узбекистана в национальных и международных СМИ, в частности, восстановления Приаралья, общенационального проекта «Яшил макон», развития возобновляемых источников энергии и борьбы с изменением климата. В статье на основе устного народного творчества, обычаев и системы национальных ценностей, в частности, наследия хадисов, содержащих благие поучения и культуру международного диалога, проанализированы духовно-нравственные основы формирования экологического имиджа. Также обосновано значение национальных ценностей и духовного наследия в повышении экологической культуры, развитии экологической коммуникации и достижении целей устойчивого развития в Узбекистане.

Ключевые слова: Экологический имидж, экологическая коммуникация, СМИ, экологическая журналистика, Узбекистан, Аральское море, устойчивое развитие, зеленая экономика, экологическая культура, наследие хадисов, охрана окружающей среды, экологическая ответственность, национальные ценности.

MEDIA COMMUNICATION AND NATIONAL VALUES: CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF UZBEKISTAN'S ECOLOGICAL IMAGE

Djurayeva Dilnoza Fazliddin qizi

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Independent Researcher.

Abstract.

This article analyzes the history of the formation of Uzbekistan's ecological image, its developmental stages, the improvement of ecological policy in the country, the coverage of environmental issues in the mass media, and the impact of ecological communication on the country's international image. Furthermore, from a scientific perspective, the reflection of Uzbekistan's ecological initiatives in national and

international media – specifically regarding the restoration of the Aral Sea region, the "Yashil Makon" nationwide project, the development of renewable energy sources, and the fight against climate change—is evaluated within the information space. Based on folklore, customs, and the system of national values, in particular the heritage of Hadiths containing noble teachings and the culture of international dialogue, the spiritual and moral foundations of shaping an ecological image are analyzed. The significance of national values and spiritual heritage in elevating ecological culture, developing ecological communication, and achieving sustainable development goals in Uzbekistan is also substantiated.

Keywords: Ecological image, ecological communication, mass media, environmental journalism, Uzbekistan, Aral Sea, sustainable development, green economy, ecological culture, Hadith heritage, environmental protection, ecological responsibility, national values.

Kirish. So'nggi yillarda dunyoda davlatlarning xalqaro imiji nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy ko'rsatkichlar, balki ekologik barqarorlik darajasi bilan ham baholanmoqda. Global iqlim o'zgarishi, suv resurslari tanqisligi, bioxilma-xillikning qisqarishi kabi muammolar mamlakatlarning ekologik mas'uliyatiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirdi [3; 12-b.]. O'zbekiston uchun ham ekologik imij strategik ahamiyatga ega. Ayniqsa, Orol dengizi ekologik inqirozi mamlakatning xalqaro maydondagi ekologik qiyofasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ekologik islohotlar mazkur imijni ijobiy tomonga o'zgartirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda ommaviy axborot vositalari ekologik muammolarni jamoatchilikka yetkazish, aholining ekologik madaniyatini shakllantirish hamda mamlakatning ekologik imijini targ'ib qilishda muhim kommunikatsiya instituti hisoblanadi.

Ekologik imij tushunchasining nazariy asoslari: Ilmiy adabiyotlarda ekologik imij mamlakatning ekologik xavfsizligi, tabiatni muhofaza qilish siyosati, xalqaro ekologik tashabbuslardagi ishtiroki va ekologik mas'uliyati haqida jamoatchilik ongida shakllangan tasavvur sifatida ta'riflanadi [5; 45–48-b.]. Ekologik imij quyidagi omillar ta'sirida shakllanadi:

Davlat ekologik siyosati;
Atrof-muhit muhofazasiga oid qonunchilik;
Ekologik jurnalistika;
Ekologik ta'lim;
Xalqaro tashkilotlar bahosi;
Ijtimoiy tarmoqlardagi ekologik kommunikatsiya;
Mamlakatning ekologik reytinglardagi o'rni.

Zamonaviy media makonida ekologik imij mamlakatning "yumshoq kuchi"ning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda [4; 22-b.].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy-tarixiy tahlil, kontent-tahlil (mediamatnlar tahlili), sotsiologiyistik va kommunikativ metodlardan foydalanildi. O'zbekiston ekologik imijining evolyutsion bosqichlarini o'rganishda xronologik-tarixiy tahlil usuli qo'llanildi.

Milliy va xalqaro OAV hamda ijtimoiy tarmoqlardagi (Facebook, Telegram, Instagram, YouTube) ekologik kontentlar jamoatchilik nazorati va ochiqlik prizmasi orqali qiyosiy tahlil qilindi [6; 114-b.]. Ekologik madaniyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini ochib berishda xalq og'zaki ijodi, muloqot mezonlari hamda hadislar merosi [10; 45-b.], shuningdek, Yusuf al-Qarzoviy [11; 34-b.], Vahba az-Zuhayliy [12; 88-b.], Muhammad Sayyid Tantoviy [13; 210-b.] kabi mutafakkir olimlarning ilmiy-falsafiy va huquqiy qarashlarini matniy-konseptual interpretatsiya qilish metodi qo'llanildi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik kommunikatsiya sohasida davlat imijini tizimli o'rganish xalqaro miqyosda konseptual asoslarga tayangan holda shakllanmoqda.

NATIJALAR. O'zbekiston ekologik imijining shakllanish tarixi va dinamikasi uchta asosiy davrga bo'linib, axborot makonida turlicha aks etgani aniqlandi:

1. **Sovet davri bosqichi:** Ekologik imijning dastlabki (salbiy) ko'rinishlari XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davrda paxta yakkahokimligi siyosati, Amudaryo va Sirdaryo suvlarining keskin qisqarishi, yerlarning sho'rlanishi, atmosfera ifloslanishi hamda pestitsidlardan me'yordan ortiq foydalanish kabi omillar mamlakatning ekologik holatiga jiddiy zarar yetkazdi. Natijada Orol dengizi dunyodagi eng yirik ekologik fojialardan biriga aylandi va xalqaro OAVda O'zbekiston ko'p yillar davomida aynan Orol fojiasi orqali regressiv tarzda tilga olindi [7; 15-b.].

2. **Mustaqillik yillari (1991–2016-yillar):** 1991-yildan keyin ekologik qonunchilik bosqichma-bosqich shakllantirildi. Ekologik qonunlarning qabul qilinishi, Davlat ekologiya qo'mitasining tashkil etilishi, Orolbo'yini rivojlantirish dasturlari, BMT bilan hamkorlik hamda xalqaro ekologik loyihalarning hayotga tatbiq etilishi natijasida mamlakatning ekologik imiji asta-sekin neytrallashtirib, tiklana boshladi [8; 54–56-b.].

3. **Yangi islohotlar davri (2017-yildan keyin):** Ekologik sohada islohotlar mutlaqo yangi bosqichga chiqdi. "Yashil iqtisodiyot" strategiyasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi, "Yashil makon" umummilliy loyihasi, elektr transportining rivojlanishi, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda iqlim diplomatiyasi kabi tashabbuslar xalqaro va milliy media tomonidan keng miqyosda ijobiy yoritila boshlandi.

Ekologik imijning OAVda yoritilish strukturasi tahlili:

Milliy OAV: Televideniye, internet nashrlari, axborot agentliklari, gazeta va radiolarda Orolbo'yini ko'kalamzorlashtirish, "Yashil makon", chiqindilarni saralash, havo sifati, iqlim o'zgarishi, daraxtlarni muhofaza qilish

hamda suv tejash texnologiyalari muntazam yoritilmoqda.

Xalqaro OAV: Orol dengizi tubida saksovluzorlar barpo etilishi, BMT doirasidagi ekologik tashabbuslar, COP konferensiyalaridagi ishtirok hamda qayta tiklanuvchi energetika sohasidagi xorijiy investitsiyalar haqida ijobiy materiallar soni ko'paydi.

Ijtimoiy tarmoqlar: Facebook, Telegram, Instagram va YouTube platformalari blogerlar yordamida noqonuniy daraxt kesish, havo ifloslanishi, chiqindilar va suv muammolari bo'yicha jamoatchilik nazoratini kuchaytirdi va bu davlat siyosatining ochiqligini ta'minlamoqda.

O'zbekistonning zamonaviy ekologik imijini shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengayib bormoqda. Xususan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida yashil fondni tizimli raqamlashtirish ishlari amalga oshirilib, bugungi kunda 605 ming tupdan ortiq daraxt uchun elektron pasportlar yaratildi va ular yagona geo-monitoring platformasiga integratsiya qilindi. Mazkur raqamli ochiqlik prinsipi xalqaro institutlar tomonidan ijobiy baholanmoqda. BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) o'zining rasmiy tahlillarida "Yashil makon" tashabbusi doirasida ajratilayotgan davlat investitsiyalarini e'tirof etib, loyihani barqaror rivojlanish obligatsiyalari va xalqaro "yashil" moliyalashtirish instrumentlari bilan qo'llab-quvvatlash zarurligini ilgari surmoqda [16]. BMTTD tahlillariga ko'ra, O'zbekiston 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 25 000 MVtga yetkazish (umumiy energiya balansining 54 foizi) hamda shahar hududlarining 30 foizini yashil zonalarga aylantirish bo'yicha global majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan bo'lib, bu ko'rsatkichlar transmilliy media makonida mamlakatning ekologik retsidivist qiyofasidan faol ekologik lokomotiv davlatga aylanayotganini ko'rsatmoqda [3].

Tadqiqot doirasida raqamli ekokommunikatsiyaning tarkibiy qismlari va ularning ekologik imij darajalariga ta'sir doirasini tizimlashtirish maqsadida quyidagi jadval ko'rinishidagi tahliliy matritsa ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston ekologik imijini shakllantiruvchi komponentlar va raqamli media instrumentlari strukturasini

Ekologik imij komponentlari	Raqamli platformalar va PR vositalari	Milliy-ma'naviy mezonlar	Kutilayotgan natija
Mediakommunikatsiya	Onlayn OAV va ijtimoiy tarmoqlar (SMM)	Hadislar va milliy-tarixiy meros konseptual uyg'unligi	Tezkor axborot almashinuvi va ishonch
Jamoatchilik nazorati	Eko-platformalar va geo-xaritalar	Isrofgarchilik va resurslar ekspluatatsiyasini qoralash o'g'irlari	Shaffoflik va davlat-jamiyat muloqoti
Media-indeks monitoringi	Sun'iy intellekt va Big Data tahlili	Atrof-muhitni omonat va universal qadriyat sifatida anglash	Ekologik barqarorlik bo'yicha xalqaro indekslardagi reyting o'sishi
Multi-imij transformatsiyasi	Transmilliy PR kampaniyalari va iqlim diplomatiyasi	Eko-tarbiya va yuksak ma'naviyat	Davlatning xalqaro miqyosdagi "yashil brend" maqomi

1-jadvalda keltirilgan tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, davlat ekologik imijining shakllanishi raqamli platformalar hamda milliy-ma'naviy qadriyatlar tizimining o'zaro muvozanatli sinteziga tayanadi. Har bir komponent muayyan PR vositasi va axloqiy mezon orqali aniq strategik maqsadga erishishni ta'minlaydi. Masalan, jamoatchilik nazorati geo-xaritalar va raqamli platformalar yordamida tashkil etilsa, uning ichki motivatsiyasi milliy merosimizdagi asossiz isrofgarchilikni qoralash tamoyillari bilan mustahkamlanadi. Bu esa, o'z navbatida, davlat organlari va fuqarolar o'rtasida ochiq muloqot muhitini yaratadi.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ekologik imijiga ijobiy va istiqbolli omillar majmuasi ta'sir ko'rsatadi [8; 58-b.]. Ijobiy omillarga ekologik qonunchilikning takomillashishi, yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik ta'lim, xalqaro hamkorlik, ekologik turizm hamda Orolbo'yidagi amaliy tiklash ishlari kiradi [1; 3-b.]. Jamiyat ekologik madaniyatini yuksaltirishda va davlatning tashqi imijini barqarorlashtirishda milliy qadriyatlar hamda Sharq falsafiy merosi o'zaro uyg'unlikda muhim o'rin tutadi [5; 89-b.].

Ushbu tizimni sotsiomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilish uchun quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

Ekologik mas'uliyat va inson omili: Sharq falsafiy tafakkurida inson tabiatning ajralmas qismi va uning muhofazasi uchun mas'ul bo'lgan asosiy subyekt sifatida talqin qilinadi [6; 120-b.]. Bu yondashuv zamonaviy dunyoviy sotsiologiyadagi ijtimoiy mas'uliyat modeli bilan to'liq hamohangdir.

Tabiiy resurslarni muhofaza qilish mezonlari: Qadimiy yozma yodgorliklar va xalq og'zaki ijodida atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, suv manbalarini toza saqlash va atrofni ifloslantirmaslik qat'iy ijtimoiy norma sifatida belgilangan. Ushbu mezonlar bugungi kundagi atmosferaning ifloslanishi, daraxtlarning asossiz kesilishi va maishiy chiqindilar inqirozini bartaraf etishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning ma'naviy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Barqaror iste'mol tamoyili: Resurslardan oqilona foydalanish va asossiz isrofgarchilikka chek qo'yish g'oyalari bugungi kunda BMT tomonidan ilgari surilayotgan Barqaror Rivojlanish Maqsadlarining (BRM) 12-bandini (Mas'uliyatli


iste'mol va ishlab chiqarish) bilan konseptual jihatdan birlashadi [3; 15-b.].

Hadislar merosida ekologik tarbiya masalalari: Milliy qadriyatlar tizimida muqaddas manbalar bo'lmish hadislarining o'zni beqiyosdir. Hadislar to'plamlarida yer yuzini yashillikka burkash, daraxt ekish va tabiatga nisbatan mehr-shafqatli bo'lish yuksak insoniy fazilat sifatida ulug'lanadi [10; 92-b.]. Xususan, ko'chat ekish va uni parvarishlashning ijtimoiy-axloqiy ahamiyati, hayvonot va nabotot olamiga nisbatan g'amxo'rlik qilish borasidagi o'g'itlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasining ijtimoiy-psixologik asosi va ma'naviy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi [2; 2-b.].

Ekologik kommunikatsiya tizimida ma'naviy-intellektual merosni tahlil qilish jarayonida dunyoviy falsafa va sotsiologiya maktablari namoyandalari (Yusuf al-Qarzoviy [11; 44-b.], Vahba az-Zuhayliy [12; 102-b.], Muhammad Sayyid Tantoviy [13; 315-b.]) qarashlari o'rganildi. Mazkur tadqiqotlar tabiatni muhofaza qilishni universal insoniy majburiyat deb baholaydi. Atrof-muhitga yetkazilgan har qanday zarar qonun maqsadlariga, jamiyat taraqqiyotiga butunlay ziddir. Ushbu fundamental g'oyalar bugungi kunda G'arb ekologik falsafasida keng tarqalgan "ekologik pragmatizm" va "biosentrizm" nazariyalari bilan bevosita kesishadi [13].

O'zbekiston Respublikasining xalqaro ekologik imiji so'nggi yillarda mintaqaviy va global ekologik diplomatiya instrumentlari orqali yangi bosqichga ko'tarildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) tomonidan o'tkazilgan atrof-muhit faoliyati sharhi (EPR) tahlillari shuni ko'rsatadiki, mamlakatda atmosferaga tashlanayotgan PM2.5 mayda dispersli zarralar monitoringi uchun real vaqt rejimidagi milliy platforma ishga tushirildi hamda Milliy Yashil Taksonomiya joriy etildi [15]. Xalqaro OAV materiallari kontent-tahlili (masalan, Pokistonning "Diplomatic Affairs" va BAAning "The Gulf Observer" nashrlari) O'zbekistonning Ozarbayjon va Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqlim kun tartibidagi integratsiyasini yuqori baholamoqda [17]. Xususan, Osiyo taraqqiyot banki va Yashil iqlim fondi ko'magida global iqlim o'zgarishi va muzliklar erishiga qarshi yo'naltirilgan 3,5 milliard dollarlik "Muzliklardan fermalargacha" mintaqaviy dasturiga O'zbekistonning integratsiya qilinishi mamlakatning mintaqaviy ekologik inqirozlarni bartaraf etishdagi yetakchilik imijini mustahkamlaydi [18].

Tadqiqot doirasida ekologik imijni yuksaltirishda dunyoviy va ma'naviy institutlarning o'zaro hamkorlik darajasi hamda aloqa yo'nalishlarini ifodalash maqsadida yangi tarkibiy chizma (1-chizma) ishlab chiqildi.



1-chizma. Ekologik kommunikatsiyada dunyoviy va ma'naviy omillar integratsiyasi

1-chizmada aks etgan model an'anaviy yondashuvlardan farq qilib, ekologik imijni shakllantirishda faqat texnik ko'rsatkichlar yoki faqat an'anaviy qarashlar emas, balki xalqaro mezonlar hamda milliy-axloqiy dunyoqarashlarning (hadislar integratsiyasi) o'zaro sintezi zarurligini ko'rsatadi [4; 70-b.]. Ushbu sintez raqamli media platformalari orqali jamoatchilikka yetkazilganda, davlat organlarining tashqi va ichki ekologik imiji mukammal transformatsiyaga uchraydi. Shuningdek, ma'lumotlar ochiqligi jamiyat ishonchini yanada mustahkamlaydi.

XULOSA. O'zbekistonning ekologik imiji murakkab tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Sovet davridagi ekologik inqirozlar va Orol fojiasi xalqaro maydondagi qiyofaga salbiy ta'sir etgan bo'lsa, mustaqillik va, ayniqsa, Yangi O'zbekistondagi keng ko'lamli "yashil" islohotlar ushbu imijni tubdan ijobiy tomonga o'zgartirishga xizmat qilmoqda. Bu o'rinda OAV ekologik madaniyatni yuksaltirish va davlatning xalqaro nufuzini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Kelgusida davlat organlari, fuqarolik jamiyati va OAV hamkorligini kuchaytirish, axborot ochiqligi va ilmiy asoslangan raqamli kommunikatsiyani rivojlantirish O'zbekistonning ekologik imijini yanada mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning ekologik imijini yuksaltirish faqatgina iqtisodiy va texnikaviy davlat siyosatining samaradorligi bilan emas, balki jamiyatning ma'naviy qadriyatlari va dunyoviy-axloqiy tamoyillariga ham chambarchas bog'liqdir. Hadislar merosining tabiat muhofazasiga oid fundamental ko'rsatmalari zamonaviy ekologik siyosat va barqaror taraqqiyot prinsiplari bilan to'liq uyg'unlik kasb etadi. Shu bois, ekologik kommunikatsiya jarayonida milliy va ma'naviy merosdan oqilona foydalanish mamlakatimizning ijobiy xalqaro ekologik brendini yaratishning eng muhim va samarali omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4477-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-46-son Farmoni.
3. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) – 2030 dasturi rasmiy hujjatlari. – Nyu-York, 2015.
4. Nye J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. – New York: PublicAffairs, 2004.
5. Cox R., Pezzullo P. C. Environmental Communication and the Public Sphere. – SAGE Publications, 2017.
6. Castells M. Communication Power. – Oxford: Oxford University Press, 2009.
7. Glantz M. H. Creeping Environmental Problems and Sustainable Development in the Aral Sea Basin. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.
8. Alikhanov B. O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari va istiqbollari. – Toshkent: Fan, 2018.
9. Xalq og'zaki ijodi durdonalari va milliy tarbiya mezonlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2012.
10. Imom al-Buxoriy. Al-Jome' as-sahih (Hadislar to'plami). – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1997.
11. Yusuf al-Qarzoviy. Ri'oyat al-Biya fi Shari'at al-Islom. – Qohira: Dorul Shuruq, 2001.
12. Vahba az-Zuhayliy. At-Tafsir al-Munir. – Damashq: Dorul Fikr, 2009.
13. Muhammad Sayyid Tantoviy. At-Tafsir al-Vasit lil Qur'on il-Karim. – Qohira: Dorul Maorif, 1998.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-martdagi "Yashil makon" umummilliy loyihasi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-47-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (Lex.uz).
15. UNECE (United Nations Economic Commission for Europe). Environmental Performance Reviews: Uzbekistan Third Review. – Geneva: United Nations Publications, 2026.
16. UNDP Uzbekistan. Uzbekistan Turns Climate Challenges into Bold Action. – Tashkent: UNDP, 2025.
17. Schulz M., Karimova N. Environmental Diplomacy in Central Asia: The Case of New Uzbekistan's Eco-Image // Journal of Environmental Communication. – 2024. – Vol. 18, Issue 3. – P. 112–129.
18. Sabirova S. Digital Eco-Journalism: SMM and Public Control in Central Asian Ecological Discourse // Media and Society Research. – 2025. – Vol. 9. – P. 45–58.